

**Statistika agentligining “Kun.uz” saytida e’lon qilingan “100% natija beruvchi
“qopqon”. Na adog’i va na mantig’i bor stathisobotlar tadbirkorlarni oyog’idan
chalmoqda” sarlavhali postiga rasmiy munosabati**

Mamlakatimizda 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha harakatlar strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar statistika idoralari faoliyatida ham o‘z samarasini bermoqda.

Xususan, sohani isloh qilish, amaliyotga xalqaro statistika standartlari va ilg‘or xorijiy tajribalarni keng joriy etish va, eng asosiysi, statistika ma‘lumotlarining ishonchliligi, shaffofligi va ochiqligini ta‘minlashga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qator farmoyish va qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 31-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3165-son qarori, 2017-yil 12-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy va moliyaviy ko‘rsatkichlar ochiqligi va oshkoraligini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmoyishi, 2019-yil 9-apreldagi “Davlat boshqaruvining ochiqligi va shaffofligini ta‘minlash hamda mamlakatning statistika salohiyatini oshirish yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-4273-son va 2020-yil 3-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4796-son qarorlari, shuningdek, ularning ijrosi yuzasidan hukumatning 30 dan ziyod qarorlari shular jumlasidandir.

Mazkur farmoyish va qarorlar ijrosini ta‘minlash yuzasidan amalga oshirilgan ishlar natijasida, barcha foydalanuvchilar uchun keng ko‘lamli statistika ma‘lumotlari, shu jumladan, avvalgi davrda e‘lon qilinmagan asosiy makroiqtisodiy, moliyaviy, ijtimoiy va boshqa statistika ko‘rsatkichlari ochiqlandi hamda erkin olish imkoniyati yaratildi.

Natijada, statistika idoralari tomonidan iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohalariga oid 20 ta turli yo‘nalishdagi statistik to‘plamlar chop etilib foydalanuvchilarga yetkazilmoqda. Shuningdek, yiliga turli sohalar bo‘yicha 150 dan ortiq oylik press-relizlar shakllantirilib, rasmiy veb sayt va ijtimoiy tarmoqlarda e‘lon qilinmoqda.

Bundan tashqari, xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda shakllantiriladigan va e‘lon qilinadigan statistika ma‘lumotlari tarkibi va qamrovi sifat va hajm jihatidan tubdan qayta ko‘rib chiqildi. Xalqaro valyuta jamg‘armasi talablari asosida O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha mavjud bo‘lmagan to‘lov balansi, xalqaro investitsiya pozitsiyasi, ichki va tashqi qarzlar va boshqa qator statistika ko‘rsatkichlarini shakllantirish yo‘lga qo‘yildi.

Umuman olganda, amalga oshirilgan ishlar yuzasidan, quyidagi ayrim asosiy natijalarni keltirib o‘tish mumkin:

1. 2018-yilning may oyidan boshlab, O'zbekiston Respublikasi Xalqaro valyuta jamg'armasining "Kengaytirilgan ma'lumotlarni tarqatishning umumiy tizimi"ga ulanib, mazkur tizimga integratsiyalashgan holda 24 ta yo'nalish bo'yicha 422 turdagi mamlakatning makroiqtisodiy, moliyaviy va ijtimoiy statistika ko'rsatkichlari to'plamlarini e'lon qilib borilishi ta'minlandi.

2. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning tovarlar savdosi (tashqi savdo statistikasi) bo'yicha umume'tirof etilgan "COMTRADE" ma'lumotlar bazasiga integratsiya yo'lga qo'yilib, O'zbekiston Respublikasi ma'lumotlari muntazam yangilab borilmoqda.

3. YUNISEFning "TransMonee" ma'lumotlar bazasiga O'zbekistonning asosiy ijtimoiy indikatorlari muntazam kiritib, yangilab borilmoqda.

4. Xalqaro tashkilotlarning ma'lumot bazalarida mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holatini to'g'ri va to'liq aks ettirish maqsadida quyidagi 17 ta xalqaro tashkilot bilan, ularning 49 turdagi savolnomalari asosida axborot almashinuvi yo'lga qo'yildi:

- BMT Statistika bo'limining 10 turdagi;
- BMT Savdo va rivojlanish konferensiyasining AKT sohasi va korxonalarda AKTdan foydalanish statistikasi bo'yicha;
- BMTning tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish bo'yicha mintaqaviy ofisining tabiiy ofatlar bo'yicha;
- BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi statistika bo'limining 5 turdagi;
- Yevrostatning transport statistikasi bo'yicha;
- YUNESKO statistika institutining 9 turdagi;
- MDH Statistika qo'mitasining o'z ichiga 159 turda turli davriylikdagi savolnomani qamrab oluvchi kompleks savolnomalar to'plami;
- YUNISEFning "Barqaror rivojlanish maqsadlari" va bolalar o'limi ko'rsatkichlari bo'yicha;
- Xalqaro Mehnat Tashkiloti Statistika departamentining mehnat bozori va xalqaro mehnat migratsiyasi bo'yicha;
- Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining hududiy savolnomasi;
- Osiyo Taraqqiyot Bankining mintaqaviy savolnomasi;
- Xalqaro energetika agentligining energiya balansi bo'yicha;
- BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO)ning 7 turdagi;
- Islom hamkorlik tashkilotining Islomiy davlatlar uchun statistik iqtisodiy va ijtimoiy tadqiqotlar hamda treninglar markazi (SESRIC)ning strategik qarashlar (rejalar) va statistik salohiyatni mustahkamlash dasturi bo'yicha;
- Xalqaro elektraloqa ittifoqining uy xo'jaliklarining AKTdan foydalanishi bo'yicha katta va kichik savolnomalari;

- Xalqaro avtomobil yo'llari federatsiyasining jahon yo'l harakati statistikasi bo'yicha;

- Britaniya Geologiya Xizmatining "Jahon mineral ishlab chiqarishi" xalqaro nashri uchun ko'rsatkichlar bo'yicha savolnomalari.

Bundan tashqari, xalqaro darajada umume'tirof etiladigan, ochiqlikning asosiy mezonlaridan biri – "Ochiq ma'lumotlar milliy Portali" faoliyatini takomillashtirish bo'yicha ham tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Rasmiy sayt, Ochiq ma'lumotlar portali, Barqaror rivojlanish maqsadlari va Gender bo'yicha saytlar takomillashtirildi. Kuni-kecha, "Statistika" integrallashgan axborot tizimi ishga tushirilib, davlat organlarining axborot resurslari bosqichma-bosqich integratsiya qilinmoqda.

Xalqaro tavsiyalar va ilg'or xorijiy tajribalar asosida statistika uslubiyoti takomillashtirib borilmoqda. O'tgan davrda 184 ta yangi uslubiy qo'llanma qabul qilindi, mavjud 34 tasi takomillashtirildi, faoliyatga sifat modellari (GSIM, GSBPM) qo'llanmalari joriy etildi.

Uy xo'jaliklari va narx kuzatuvlari uslubiyoti takomillashtirildi, aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ishlari boshlandi. "Milliy hisoblar tizimi–2008" tavsiyalari joriy etildi, Xalqaro taqqoslash dasturi–2021-2022 da ishtirok etildi, tarmoq statistikasi uslubiyoti takomillashtirildi.

Sohadagi islohotlarning davomi sifatida, Jahon Banki ko'magida xalqaro ekspertlarni jalb etgan holda "2020-2025-yillarda statistikani rivojlantirishining milliy strategiyasi" ishlab chiqildi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-avgustdagi PQ-4796-son qarori bilan tasdiqlandi.

Yuqorida amalga oshirilgan islohotlar natijalari xalqaro stastika hamjamiyati tomonidan ham e'tirof etilib, misol uchun ijobiy o'zgarishlar "Open data Inception", Londondagi Ochiq ma'lumotlar Instituti (ODI), BMTning "Elektron hukumat kuzatuv", Ochiq ma'lumotlar reytingida (Open Data Inventory – ODIN) va Jahon bankining "Statistika salohiyati indeksi" kabi qator xalqaro reytinglarda ham o'z ifodasini topmoqda.

O'z navbatida sohadagi barcha islohotlarning asosiy maqsadi "Xalq manfaati, odamlarni rozi qilish" yo'lida puxta o'ylangan strategik qarorlarni qabul qilish, maqsadli va manzilli dasturlarni ishlab chiqishda zarur bo'lgan sifati, ishonchlili, shaffof va dolzarb rasmiy statistika ma'lumotlarini yetkazib berishga qaratilgan.

Aynan shuning uchun ham, yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlari doirasida ham yangitdan tashkil etilayotgan Statistika agentligi faoliyatini yanada takomillashtirish borasida ustuvor yo'nalishlar sifatida:

- statistika ma'lumotlarining sifati, ishonchliligi, shaffofligi va oshkoraligini ta'minlash choralari ko'rib borish;

- foydalanuvchilarning dolzarb statistika ma'lumotlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirib borish;

- faoliyatga raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish;

- rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari axborot tizimlari bilan o'zaro integratsiyani amalga oshirish va alternativ axborot manbalaridan foydalanish orqali respondentlarga hisobot yukini kamaytirib borish;

- ro'yxatga olish tadbirlarini amalga oshirish, shuningdek, ilg'or xorijiy tajribalar asosida statistika kuzatuvlari jarayonlarini takomillashtirib borish va boshqa bir qator maqsadlarni alohida sanab o'tish mumkin.

Hurmatli Ruslan Saburov Siz masala sifatida ko'targan har bir yo'nalish bo'yicha quyidagilarni ma'lum qilamiz.

Umumiy ma'lumotlar

Qonundagi vakolatlar va respondentlarga hisobot yuklamasini qisqartirish choralari to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, **rasmiy statistika** – statistika idoralari va rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari tomonidan tayyorlanadigan hamda tarqatiladigan statistika ma'lumotlaridan iboratdir.

Statistika ma'lumotlari esa, statistika kuzatuvlari natijasida va (yoki) ma'muriy ma'lumotlar asosida tayyorlangan iqtisodiy, demografik, ijtimoiy, moliyaviy, ekologik xususiyatga hamda boshqa xususiyatga ega axborot hisoblanadi. Ya'ni, ushbu axborotlar statistika hisoboti shakllari va (yoki) boshqa tashkilotlarning ma'muriy ma'lumotlari asosida shakllantiriladi.

Butun dunyoda bo'lgani kabi statistika ma'lumotlarini shakllantirish uchun respondentlar tomonidan taqdim etilishi zarur bo'lgan statistika kuzatuv shakllari, rasmiy statistika sohasidagi vakolatli davlat organi hisoblangan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan ishlab chiqiladi hamda amaliyotga joriy etiladi.

O'z navbatida, statistika idoralari, yuqorida qayd etilgan qonunga muvofiq, **rasmiy statistikaning asosiy prinsiplari**, ya'ni mustaqillik; tushunarlilik va shaffoflik; aniqlik va ishonchlilik; beg'arazlik va xolislik; statistik maxfiylik va dolzarblik prinsiplariga rioya etgan holda faoliyat olib boradi.

Statistika ma'lumotlarini yig'ish, qayta ishlash, umumlashtirish, tahlil qilish, tarqatish va saqlashning zamonaviy usullaridan foydalanish hamda ularni milliy statistika tizimiga joriy etish statistika organlarining mazkur Qonun bilan mustahkamlab qo'yilgan huquqlari hisoblanadi.

Shunga ko'ra, statistika idoralari tomonidan xalqaro tavsiyalarga muvofiq hamda respondentlarga hisobot taqdim etish yuklamasini bosqichma-bosqich qisqartirib borish maqsadida, doimiy ravishda statistika kuzatuv shakllari takomillashtirib borilmoqda.

Xususan, 2017-yilda statistika hisoboti shakllari **115 ta** bo'lgan bo'lsa, 2023-yil uchun **98 ta** hisobot shakllari mavjud, ya'ni hisobot turlarining qisqarishi qariyb **15 foizni** tashkil etgan. O'z navbatida, tanlanma kuzatuv shakllari soni **30 foizga** oshgan.

Shuningdek, **62** ta statistika hisoboti va ilovalaridagi (*jamiga nisbatan 55,4 %*) ko'rsatkichlar soni 2022-yilga nisbatan jami **3 174** taga yoki **17,7 %** ga qisqartirish orqali soddalashtirilgan, **47** ta (*jamiga nisbatan 46,9 %*) hisobot shakllarining topshirish muddatlari maqbullashtirilgan.

Ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida, 2022-yilga nisbatan statistika hisobotlari jami soni **10,9 %** ga, shu jumladan, oylik hisobotlar **14,3 %** ga, mavsumiy hisobotlar **33,3 %** ga va yillik hisobotlar **12,2 %** ga qisqartirilgan.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, statistika idoralari tomonidan hisobot shakllarini maqbullashtirish, soddalashtirish va takomillashtirish va bu orqali respondentlarga qulaylik va yengilliklar yaratish yuzasidan doimiy ravishda amaliy ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Statistika hisobotini qayta topshirish imkoniyatining mavjudligi.

Statistika hisobotlarini taqdim etish muddatlari statistika dasturlariga muvofiq rasmiy statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish va e'lon qilish muddatlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

“Rasmiy statistika to'g'risida”gi qonunga muvofiq, respondentlar agar taqdim etilgan ma'lumotlar o'z xulosalariga yoki rasmiy statistikani tayyorlovchilarning xulosalariga ko'ra, to'g'ri, dolzarb va (yoki) to'liq bo'lmasa, rasmiy statistikani tayyorlovchilar tomonidan belgilangan muddatlarda ma'lumotlarni tuzatishi, yangilashi, to'ldirishi hamda ularga taqdim etishi shart.

Respondentlar tomonidan statistika hisobotlarini taqdim etish qoidalari Adliya vazirligidan ro'yxatdan o'tgan “**Statistika hisobotini elektron shaklda taqdim etish tartibi to'g'risidagi nizom**”ga muvofiq belgilangan. Xususan, ushbu nizomda hisobotlarni qayta topshirish qoidalari ham aks etgan.

Jumladan, nizomning 15-bandiga muvofiq, agar respondent, joriy hisobot davri uchun statistika hisobotini yuborganidan so'ng, **undagi xatolar va nomuvofiqliklarni mustaqil aniqlasa**, u statistika organlariga to'g'rilangan hisobotni tushuntirishlar bilan yuboradi. Qayta ishlash davri o'tguniga qadar **respondent tomonidan to'g'rilangan hisobotning qayta yuborilishi statistika hisobotini taqdim etish tartibini buzish hisoblanmaydi**, hisobot mazkur Nizomda belgilangan tartibda statistika organlari tomonidan qabul qilinadi va qayta ishlanadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksining **271-moddasiga** muvofiq, statistika hisobotlarini taqdim etish bilan bog'liq huquqbuzarlikni birinchi marta sodir etgan tadbirkorlik subyektining mansabdor shaxslari yoki xodimlari huquqbuzarlik aniqlangan paytdan e'tiboran **o'ttiz kunlik muddatda** yo'l qo'yilgan buzilishlarni ixtiyoriy ravishda bartaraf etgan bo'lsalar, ularga nisbatan **ma'muriy huquqbuzarlik choralari ko'rilmaydi**.

Ya'ni hisobotni belgilangan muddatda taqdim etmagan yoki unda xato-kamchilikka yo'l qo'ygan tadbirkorlik subyektiga ushbu kamchilikni bartaraf qilish uchun 30 kunlik imtiyozli muddat mavjud va amaliyotda ular ushbu imkoniyatlardan foydalanib kelishmoqda.

Shu bilan birga, statistika ma'lumotlarini qayta ishlash muddati tugashi bilan oq, ular statistika dasturida belgilangan muddatlarda e'lon qilinadi. Shunga ko'ra, respondent tomonidan mustaqil to'g'rilangan hisobotning belgilangan qayta ishlash davridan va statistika ma'lumotlari e'lon qilingandan so'ng, kechikib qayta yuborilishi statistika hisobotini taqdim etish tartibini buzish hisoblanadi va qonunchilik hujjatlariga muvofiq, mansabdor shaxslarga nisbatan ma'muriy jazo choralari qo'llanilishiga sabab bo'ladi.

Shuningdek, qonunchilik hujjatlariga ko'ra, statistika hisobotini taqdim etish tartibini buzgan tadbirkorlik subyektlariga nisbatan ma'muriy ishlar sud idoralari tomonidan ko'rib chiqiladi, ularga nisbatan qo'llanilgan jarimalar to'liq davlat byudjetiga yo'naltiriladi. Shundan kelib chiqqan holda, statistika idoralari qo'llanilgan ma'muriy jarimalardan hech qanday manfaatdor emas.

Yuqorida qayd etilganlardan ko'rinib turibdiki, respondentlar uchun har doim ham hisobotlarni qayta topshirish, ularni tuzatish imkoniyati mavjud.

Konsalting xizmatlari haqida.

Amaldagi Nizomiga muvofiq, statistika idoralari shartnoma asosida, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda statistik, tahliliy, axborot, noshirlik xizmatlarini va Statistika dasturidagidan tashqari boshqa xizmatlarni ko'rsatadi.

Chunonchi, statistika hisobotlarida muayyan tarmoqqa oid ko'rsatkichlar mavjudligi, ularni to'ldirishda ma'lum darajada malaka talab etilishi sababli, yangi tashkil etilgan subyektlar va ularning yangi ishga kirgan yoki boshqa sohadan kelgan hisobchilari uchun ba'zi hollarda qo'shimcha amaliy yordam ko'rsatish zarurati yuzaga keladi.

Shunga ko'ra, statistika organlari tomonidan o'z vakolatlari doirasida respondentlarga konsalting (maslahat) xizmatlari shartnoma asosida taklif etiladi. Bu esa, o'z navbatida, hisobchilarning malakasini oshirishga, statistika hisobotlari va ulardagi ko'rsatkichlarning sifatini yaxshilashga xizmat qiladi hamda kelgusida ular tomonidan taqdim etiladigan hisobot ma'lumotlarining to'liq, dolzarb va ishonchli bo'lishini ta'minlaydi.

Statistika organlari tomonidan shartnoma asosida ko'rsatilayotgan xizmatlar o'zaro ixtiyoriylik asosida, respondentlarning huquqlari ta'minlangan holda amalga oshirib kelinmoqda.

Alohida qayd etish lozimki, aynan statistika idoralari tomonidan ko'rsatilgan konsalting (maslahat) xizmatlari hisobot taqdim etish bilan bog'liq huquqbuzarliklarning oldini olish va respondentlarni qonuniy choralar, jumladan, ma'muriy jazo choralaridan himoya qilishga qaratilgan.

Statistika idoralarining faoliyati ochiq va shaffof tashkil etilgan. Xususan, agar qaysidir hisobot taqdim etuvchi subyekt statistika idoralarida korrupsiya omiliga duch keladigan bo'lsa, **1151 ishonch raqamiga** murojaat qilishi va ushbu masalada tezkor yechim olishi mumkin. Ushbu ishonch raqami statistika idoralarining rasmiy veb-saytlarida hamda har bir tuman, shahar statistika bo'limlarida mavjud. Biroq, shu

kunga qadar, hech bir jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan ushbu masalada murojaatlar kelib tushmagan.

Maqolada qayd etilgan e'tirozlar bo'yicha:

1. Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri ma'lumotlarini olish va foydalanish masalalari.

Statistika idoralari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi 539-son qarori bilan tasdiqlangan "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to'g'risidagi Nizom"ga asosan **yuridik shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar** Davlat xizmatlari markazlari ma'lumotlar bazasi bilan avtomatik tarzda integratsiyalashgan tizim orqali **www.stat.uz** rasmiy saytida aks etib boradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 9-fevraldagi 66-son qaroriga asosan Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari markazlari tomonidan yuridik shaxslarni ro'yxatdan o'tkazish ishlari **fo.birdarcha.uz** sayti orqali amalga oshiriladi. O'z navbatida, ushbu yuridik shaxslarning ma'lumotlari Statistika agentligi ma'lumotlar bazasi bilan avtomatik tarzda integratsiyalashgan tizim **www.stat.uz** rasmiy saytida aks etib boradi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi 539-son qarori bilan Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatish hamda foydalanuvchilarga taqdim etish, ma'lumotlarni inson omili aralashuvisiz **davlat xizmatlari markazlari** va **O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali** (<https://my.gov.uz/ru/service/662>) orqali onlayn rejimda olish imkoniyati yaratilgan.

Shuningdek, korxona va tashkilotlar to'g'risida olish mumkin bo'lgan ma'lumotlar ro'yxati 8 tadan **16 turga ko'paytirilgan**.

Qolaversa, Statistika agentligi veb-sayti havolasi orqali (<https://stat.uz/uz/default/press-revizlar/17505-2022>) korxona va tashkilotning demografiyasi bo'yicha ma'lumotlar pres-reviz ko'rinishida zamonoviy infografikalar asosida tayyorlanib saytga joylashtirilgan.



Yuridik shaxslar ma'lumotlari konfidensialligini ta'minlash maqsadida, STIR kodini kiritgan holda (http://registr.stat.uz/enter_form/index.php) real vaqt rejimida **yuridik shaxs to'g'risida bepul ma'lumotlar olishning amaldagi tartibi saqlab qolingan**.



Bugungi kunda qo'mitaning Korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot (KTYADR)lar bazasidan mahalliy va xorijiy foydalanuvchilar foydalanib kelishmoqda. **Demak, qanday qilib, qo'mitaning xodimi ma'lumotlar bazasi o'zida bo'la turib, boshqa tashkilotdan so'rashi mumkin. Bu hech qanday mantiqqa to'g'ri kelmaydi.**

Biz Mirobod tumani statistika bo'limi xodimi Jamolov Kamol bilan bog'langanimizda, u Davlat xizmatlari agentligiga boshqa masalada borganini qayd etdi. **Shu o'rinda sizga savol? Siz aynan o'sha xodim bilan gaplashdingizmi? Nega maqolangizda shov-shuv qilib ko'targan savollaringizni o'sha joyda bermadingiz? Birgina shov-shuv uchun asoslanmagan axborotlarni tarqatib, qo'mitaning halol, fidoyi va mehnatkash ko'pminglik xodimlarining sha'ni, ishchanlik ruhiyatiga salbiy ta'sir o'tkazish qaysi insoniylik va xalqparvalik, vatanparvarlik tuyg'ulariga mos keladi?**

Statistika idoralari barcha jurnalistlar, bloggerlar va jamoatchilik uchun doim ochiq. Jumladan, siz faoliyat yuritayotgan sayt muxbirlari bilan ham doimiy aloqadamiz, hamkorlikda ishlayapmiz. Siz tanqid qilib, shakllantirilishi kerak emas degan statistik raqamlar har kuni sizlarning platformangizda ham berib boriladi. Aslida statistika sohasi juda murakkab ilmiy soha hisoblanadi. Birgina raqamning ortida qancha islohotlar, jarayonlar va rivojlanish tendensiyalari bo'lishi mumkin.

2. Yana bir holat, siz aytayotgan tadbirkorlar qachon, qayerda bizga nisbatan norozilik bildirgan?

Statistika idoralarining rasmiy saytida foydalanuvchilar o'rtasida ko'rsatilayotgan interaktiv xizmatlarning sifatini baholab borish maqsadida muntazam so'rovnoma (<https://stat.uz/uz/interaktiv-xizmatlar/xizmatlar-ro-yxati/2-uncategorised/14596-sorovnom>) o'tkazib kelinadi. Ushbu so'rovnoma jami 5 ta savoldan iborat bo'lib, savollarning birida foydalanuvchilardan e-Stat 4.0 avtomatlashtirilgan axborot tizimidan foydalanish qulayligiga baho berish imkoniyati yaratilgan.

Xususan, 2022-yil yakuni bilan so'rovnoma natijalarini o'rganish davomida foydalanuvchilarning 70 foizdan ortig'i Axborot tizimiga kirish qulayligi, 85 foizi Axborot tizimi interfeysining qulayligi, 82 foizi Foydalanuvchilar uchun yaratilgan instrumentariylar qulayligi va 75 foizi Axborot tizimining ishlash tezligini ijobiy baholashgan.

Shu bilan birga, jami foydalanuvchilarning 11 foizi e-Stat 4.0 avtomatlashtirilgan axborot tizimidan foydalanish qulayligiga e'tiroz bildirgan. Hozirgi kunda ushbu so'rov natijalaridan kelib chiqqan holda e-Stat 4.0 avtomatlashtirilgan axborot tizimining funksional imkoniyatlarini yanada takomillashtirish ishlari olib borilmoqda.

Yana shuni ma'lum qilamizki, tizimda tadbirkorlik subyektlariga hisobot topshirishda qulayliklar yaratish maqsadida doim amaliy ishlar bajarib kelinmoqda. Jumladan, ayni kunlarda haftada 3 kun 3 soatdan kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan taqdim etiladigan 2022-yil yakunlari bo'yicha "1- kb" yillik statistika hisobotini topshiruvchi kichik tadbirkorlik subyektlariga hisobot topshirishda uslubiy yordam berish maqsadida, on-line muloqotlar tashkil etib, ularning savollariga tushuntirishlar berib kelinmoqda.

E'tibor bering, mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining makroiqtisodiy ko'rsatkichlardagi (YAIM, ishlab chiqarilgan va ko'rsatilgan xizmatlar, tashqi savdo, bandlik, va hk.) ahamiyati yildan yilga ortib bormoqda.

Shuni ta'kidlash joizki, 2013-yilgacha bo'lgan davrda kichik korxona va mikrofirmalar har chorakda, 2013-yildan boshlab, faqat kichik korxonalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 16-iyuldagi "Statistik, soliq, moliyaviy hisobotlarni, litsenziyalanadigan faoliyat turlarini va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-4453-son Farmoniga muvofiq statistika organlariga har chorakda hisobot taqdim etib kelishgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 7-apreldagi "O'zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" F-4609-son Farmoniga muvofiq, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan yilda bir marta yillik statistika hisobotini taqdim etishi belgilangan.

O'z navbatida, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan **statistika hisobotlarining taqdim etilishi** muhim ahamiyat kasb etgan holda respublika makroiqtisodiy ko'rsatkichlarining shakllanishiga, biznes muhitining yaxshilanishiga hamda mos ravishda mamlakatimizning xalqaro reytinglardagi o'rnining yaxshilanishiga bevosita o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Demak, statistika idoralarining tadbirkorlik subyektlarini ortiqcha ovora qilish, ularga noqulayliklar tug'dirishiga ma'nau xohish-istagi yo'q va bunga qonun ham yo'l qo'ymaydi. Aksincha, ularga qulayliklar, shart-sharoit yaratish asosiy maqsadimizdir.

3. Soliq va boshqa organlar bilan o'zaro integratsiya qilinmagani tadbirkorlarni (nafaqat tadbirkorlar, balki barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarni) sarson qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 4-sentyabrdagi "Yuridik shaxslar, faoliyatini vakolatxona, filial yoki doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan chet el yuridik shaxslari va tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va saqlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 539-son qaroriga muvofiq, Davlat soliq qo'mitasi va Statistika agentligi o'rtasida elektron ma'lumot almashinish (integratsiya) yo'lga qo'yilgan.

Natijada korxona rahbari va hisobchilari avtomatik tarzda tekshiruvdan (identifikatsiya) o'tkazilib, statistika hisobotlarini elektron shaklda yig'ish axborot tizimida shaxsiy kabinetiga kirgan holda statistik hisobotlarni elektron shaklda topshirish imkoniyatini yaratadi.

4. Bugungi kunda raqamlashtirish va integratsiya qilishni namunali tarzda yo'lga qo'ygan tashkilotlar bor.

Kuzatuvlarni o'tkazish, rasmiy statistika materiallarini shakllantirish hamda tahlillarni amalga oshirish maqsadida, vazirlik va idoralarning axborot tizimlari bilan o'zaro **integratsiya qilish** ishlari amalga oshirilgan, jumladan:

- **Statistika agentligi** va **Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi** o'rtasida yuridik shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar o'rtasida o'zaro elektron ma'lumotlar almashinish tizimi;

- **Statistika agentligi** va **Davlat soliq qo'mitasi** o'rtasida yuridik shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar o'rtasida o'zaro elektron ma'lumotlar almashinish tizimi;

- **Statistika agentligi** va **Oliy sud** o'rtasida korxona va tashkilotlarda ishlovchalarining ish haqi hamda Jinoyat ishlari bo'yicha sudlar tomonidan ko'rilgan ishlar to'g'risidagi ma'lumotlar o'rtasida o'zaro elektron ma'lumotlar almashinish tizimi;

- **Statistika agentligi** va **Toshkent shahar hokimiyati** o'rtasida bozorlar va savdo shahobchalarida asosiy tovarlar bo'yicha narxlar to'g'risidagi ma'lumotlar o'rtasida o'zaro elektron ma'lumotlar almashinish tizimi;

- **Statistika agentligi** va **Qurilish vazirligi** o'rtasida qurilish-pudrat tashkilotlari to'g'risidagi ma'lumotlar o'rtasida o'zaro elektron ma'lumotlar almashinish tizimi yo'lga qo'yilgan.

5. Statistika tizimida hisobot topshirish yaqin 2 yilda onlayn shaklga o'tkazildi.

Statistik ma'lumotlarni yig'ish jarayoni statistika ishini olib borishning eng muhim va ajralmas qismi hisoblanib, mazkur jarayonning to'g'ri va samarali tashkil etilishi tahliliy ma'lumotlarning haqqoniyligi va aniqligiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi.

Statistika idoralari tomonidan birlamchi ma'lumotlarni yig'ish jarayonlarida quyidagi texnologiyalardan foydalanib kelinmoqda:

- statistik hisobotlarni elektron shaklda qabul qilishning "eStat" axborot tizimi orqali olingan ma'lumotlar;
- veb-sayt orqali o'tkazilgan so'rovnomalardan olingan ma'lumotlar;
- vazirlik va idoralarning ma'lumotlar bazalari bilan integratsiya orqali olingan ma'lumotlar;
- planshetlar yordamida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari;
- ochiq veb resurslardan skanerlash yo'li bilan to'plangan ma'lumotlar;
- telefon so'rovlari orqali olingan ma'lumotlar.

Statistik hisobotlarni qabul qilish jarayonini "eStat" avtomatlashtirilgan axborot tizimi amalga oshiradi, uni tadbiq etish esa bosqichma-bosqich amalga oshiriladi:

Birinchi bosqichda 2011-yildan boshlab, korxonalar va tashkilotlarga statistik hisobotlarning to'rtta shaklini elektron tarzda taqdim etish imkoniyati yaratildi. 2012-yilning boshida statistika hisobotlarining shakli 22 taga yetkazildi.

2013-yilda soha tizimlarini takomillashtirish va barcha statistik hisobot shakllarini elektron taqdim etishga o'tkazish orqali yangilangan va avtomatlashtirilgan

“eStat 2.0” axborot tizimini joriy etish natijasida, statistik hisobotlarni elektron shaklda topshiruvchi subyektlarning ulushi, umumiy hisobot topshiruvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning 88,6 % ini tashkil etdi.

2015-yildan boshlab barcha hisobot topshiruvchi tadbirkorlik subyektlarining elektron shaklda statistik hisobotlarni taqdim etishiga to‘liq o‘tilishi ta‘minlandi.

2020-yil mart oyidan boshlab **statistika hisobotlarini qabul qilishning veb-texnologiyaga asoslangan zamonaviy avtomatlashtirilgan axborot tizimi (“eStat 4.0”)** ishlab chiqilib, ishga tushirilgan.

Loyihalarni amalga oshirish natijasida quyidagi imkoniyatlar yaratildi:

- statistika hisobotlarini shakllantirish va taqdim etish **veb texnologiyaga asoslangan interfeysda** bo‘lib, alohida dasturiy ta‘minot o‘rnatilishi talab etmaydi;

- axborot tizimida yuborilgan hisobotlarning holatini **avtomatik tarzda tekshirish** imkoniyati qo‘shildi;

- statistik hisobotlarni shakllantirish jarayonida undagi xatoliklar **mantiqiy nazorat** tizimi yordamida to‘liq tekshiriladi;

- axborot tizimi **barcha operatsion tizimlarini** qo‘llab-quvvatlaydi;

- statistik kuzatuvlar bilan bog‘liq barcha jarayonlar haqida **shaxsiy kabinet** yordamida xabardor bo‘lib borish imkoniyati yaratildi;

- axborot tizimidan topshirilgan hisobotlarni **arxivga saqlash** imkoniyati qo‘shildi.

Veb-texnologiyadan foydalanish orqali foydalanuvchilar tizimini ishga tushirishda **sarflanadigan vaqti** tizimining avvalgi talqini bilan solishtirganda **qisqartirishga** erishildi.

6. Bundan tashqari, xizmat yoki mahsulot turi ko‘rsatilishi kerak bo‘lgan hisobot shakllari bor. Ular esa maxsus kodlarda berilgan. Onlayn hisobot topshirishda hisobchilarning vaqtini oladigan, asabiylashtiradigan jarayonlardan biri shu. Maxsus kodlar mahsulot yoki xizmat turi yozilgan shaklda qulay berilmagan: hisobchi avvalo tegishli mahsulot yoki xizmat turining kodini mustaqil ravishda o‘zi izlab topishi, keyin bazaga yuzlab kodlar orasidan uni axtarib o‘tirishi kerak.

Bu borada qulaylik uchun **“eStat 4.0”** axborot tizimi yordamida hisobot shakllarini to‘ldirishda iqtisodiy va statistik tasniflagichlar joylashtirilgan ustun nomida havola keltirilgan bo‘lib, ular orqali tasniflagichlar ma‘lumotlari (maxsus kodlar va ularning nomlanishi) bo‘yicha qidiruv tizimiga o‘tiladi.



Ushbu shaklda joylashtirilgan tasniflagichni tanlashda qidiruv imkoniyati yaratilgan. Tegishli tasniflagichlarni va maxsus kodlarni qidirish talab etilmaydi.



7. Raqamlashtirish, shaffoflashtirish, integratsiya qilish borasida texnik imkoniyatlar yetarli bo'lgan bugungi kunda bundan unumli foydalanmaslik, xalq tili bilan aytganda zamondan ortda qolishdir. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqilsa, Statistika agentligi mas'ullari "zamondan ortda qolish"ni o'zlari istayotgan bo'lishi mumkin.

Hozirgi kunda statistika idoralari tomonidan statistika hisobotlarini to'plash, qayta ishlash va taqdim etish jarayonlarini raqamlashtirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, "Statistika" integrallashgan axborot tizimi hamda uning negizida siat.stat.uz veb-portali ishlab chiqildi.



Axborot tizimini joriy etish doirasida quyidagi vazifalar amalga oshirildi:

- yillar davomida turli-xil formatlarda to'plangan statistika ma'lumotlari bir-xil formatga o'tkazilib, yagona ma'lumotlar bazasiga ko'chirildi va ushbu amalga oshirilgan ish natijasida ma'lumotlarni integratsiya yo'li bilan elektron almashinuvi hamda ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonlari jadallashtirildi;

- statistik ko'rsatkichlar xalqaro tashkilotlar tomonidan tavsiya etilgan ma'lumot va metama'lumotlarni elektron almashinuvi – SDMX standarti talablari asosida takomillashtirildi. Shu maqsadda 1000 dan ziyod ko'rsatkichlar uchun metama'lumotlar tuzildi va ko'rsatkichlar strukturasi qayta ko'rib chiqildi;

- vazirlik va idoralar uchun zarur statistik ma'lumotlarni elektron almashinuvi uchun soddalashtirilgan tarzda qisqa vaqt ichida integratsiya tizimlarini yaratish moduli ishga tushirildi;

- foydalanuvchilar uchun statistika ma'lumotlarining tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida, ma'lumotlarni interaktiv grafik, gistogramma va diagrammalar ko'rinishida, hamda solishtirish, reyting shakllantirish va ko'rsatkichlar o'rtasidagi munosabatlarni belgilash modullari yaratildi.

Bundan tashqari, statistika agentligi tomonidan o'tkaziladigan **uy xo'jaligi, xizmat ko'rsatish, transport sohasi, bozor narxi, sanoat, qishloq xo'jaligi va savdo sohasi** kuzatuvlarini planshetda o'tkazish uchun:

- "Narxlar tanlanma statistik kuzatuvlari" axborot tizimi;

- “Aholiga xizmat ko’rsatuvchi jismoniy shaxslarni tanlanma statistik kuzatuvlari”ning axborot tizimi;
- “Shaxsiy avtotransport egalari tashish faoliyatini tanlanma statistik kuzatuvlari”ning axborot tizimi;
- “Ishlab chiqaruvchilik faoliyati bilan shug’ullanuvchi shaxslarning tanlanma statistik kuzatuvlari”ning axborot tizimi;
- “Dehqon xo’jaligi faoliyatini tanlanma statistik kuzatuvlari”ning axborot tizimi;
- “Qishloq xo’jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma statistik kuzatuvlari”ning axborot tizimi va boshqalar ishlab chiqilgan, hamda respublika bo’yicha amaliyotga joriy etilgan.

8. Qishloq xo’jaligi bo’yicha statistik hisobotlarda tuxum tug’adigan tovuqlar soni, echki yoki qo’ydan qirqib olingan jun, bo’g’oz bo’lmagan g’unajinlar soni, shudgorlangan va shudgorlanmagan yerlar, o’g’it solingan maydon, qo’zilarning o’rtacha vazn olishi kabi ma’lumotlar so’raladi.

So’nggi yillarda O’zbekiston Respublikasining qishloq xo’jaligi tarmog’ini tubdan rivojlantirish yuzasidan keng ko’lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu o’z navbatida, qishloq xo’jaligida amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar natijalarining xalqaro talablarga javob beradigan hisob-kitoblari tizimini tashkil etishni taqozo etadi.

Shundan kelib chiqib, qishloq xo’jaligi sohasidagi tegishli me’yoriy-huquqiy hujjatlaridan, xalqaro tashkilotlarning tavsiyalaridan, shuningdek, MDH davlatlarining tajribalaridan foydalangan holda, so’nggi yillarda qishloq xo’jaligi bo’yicha tegishli davlat statistika hisobot shakllaridagi ko’rsatkichlar ko’lami kengaytirildi, xalqaro standartlar asosida hisobot shakllariga qo’shimcha ko’rsatkichlar kiritildi.

Maqolada qayd etilgan, **“tovuqlar”, “tuxum tug’adigan tovuqlar soni”** hamda **“echki yoki qo’ydan qirqib olingan jun”** ko’rsatkichlari orqali chorvachilikda o’rtacha mahsuldorlik ko’rsatkichlari hisoblangan, 1 bosh tovuqdan olingan tuxum hamda 1 bosh qo’y va echkilardan qirqib olingan jun hajmini hisoblashda foydalaniladi.

Republikamizda parrandachilikka ixtisoslashgan fermer xo’jaliklari hamda qishloq xo’jaligi tashkilotlari soni tobora ortib bormoqda. Ularda jo’ja ochish uchun inkubatorlar mavjudligini inobatga olgan holda, **“inkubator (jo’ja ochish) uchun tuxumlar”** soni to’g’risidagi ma’lumotlarni shakllantirish lozim hisoblanadi.

Qishloq xo’jaligi ekinlarini yetishtirishda mineral va organik o’g’itlar bilan oziqlantirish muhim hisoblanadi. **“o’g’it solingan maydon”** ko’rsatkichi xo’jaliklar tomonidan jami qishloq xo’jaligi ekinlari ekilgan maydondan qanchasiga mineral va organik o’g’itlar solinganligini hamda o’rtacha bir gektarga solingan o’g’itlar miqdorini tahlil qilish uchun zarur bo’lgan ko’rsatkich hisoblanadi.

Qishloq xo’jaligi hayvonlaridan tashqari ayrim xo’jaliklarda **“tirik qishloq xo’jaligi sudralib yuruvchilari (jumladan ilonlar va toshbaqalar)”** boqilishini, shuningdek, xalqaro tajribada ularning soni yuritilishini inobatga olib, shu bilan birga respublikada ularning sonini tahlil qilish maqsadida ushbu ko’rsatkich hisobot shakllariga kiritilgan.

Yuqorida qayd etilgan ko'rsatkichlar fermer xo'jaliklari va boshqa qishloq xo'jaligi tashkilotlari tomonidan faqatgina yilda bir marta taqdim etiladigan yillik hisobot shakllarida mavjud.

Qayd etish lozimki, hisobot taqdim etuvchilarga qulaylik yaratish maqsadida, hisobot shakllaridagi ko'rsatkichlarni to'ldirish bo'yicha har bir hisobot shakli bo'yicha tushuntirishlar ishlab chiqilgan hamda agentlikning rasmiy saytiga joylashtirilgan.

Bundan tashqari, xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan taqdim etiladigan statistika hisoboti ma'lumotlarini shakllantirish hamda hisobotni to'ldirish va sifatli taqdim etish yuzasidan hududlarda seminarlar o'tkazib borilmoqda.

Ta'kidlash lozimki, maqolada keltirilgan **“bo'g'oz bo'lmagan g'unajinlar soni”, “shudgorlangan va shudgorlanmagan yerlar”** hamda **“qo'zilarining o'rtacha vazn olishi”** kabi ko'rsatkichlar amaldagi statistik hisobot shakllarida mavjud emas.

Muallif ushbu hisobot shakllarida mavjud bo'lmagan ko'rsatkichlarni qayerdan olgani bizga noma'lum. Lekin hurmatli maqola muallifidan kelgusida shu kabi maqolalarni tayyorlashda e'tiborli bo'lishlarini so'rab qolamiz.

9. 1-avto hisobot shakli. Mazkur hisobot turida tashkilotdagi avtomashinalar soni va ular bilan bog'liq ma'lumotlar to'ldiriladi. Mantiqsizligi shundaki, avtomashinasi yo'q bo'lgan tashkilotlar ham mazkur hisobot shaklini to'ldirishga, ya'ni jadvalga shunchaki “0” qo'yib topshirishga majbur. Aslida, avtomashina igna kabi predmet emas, davlat ro'yxatidan o'tkazilgan texnika. Tegishli tashkilot bilan integratsiya qilinsa, bu ma'lumot avtomatik yangilab turilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2022-yil 16-noyabrdagi 23-mb-son qaroriga 53-ilova bilan tasdiqlangan **1 avto shakli** yillik hisobot shaklini faqatgina **o'z balansida yoki ijaraga olgan avtomodillari mavjud bo'lgan** yirik tijorat korxonalari tomonidan taqdim etishi **hisobot shaklining asosiy yuz (titul) qismida belgilab qo'yilgan.**

АВТОМОБИЛЬНЫЙ ТРАНСПОРТ И ХОЗЯЙСТВЕННЫЕ АВТОМОБИЛИ УЗУНЛИГИ ТО'G'RIKIDA ... YIL UCHUN HISOBOT ОТЧЕТ ОБ АВТОМОБИЛЬНОМ ТРАНСПОРТЕ И ПРОТЯЖЕННОСТИ ХОЗЯЙСТВЕННЫХ АВТОМОБИЛЕЙ ЗА ... ГОД		
Ташкilot nomi (Foydalanuvchi)	Ташкilotning ma'nosini qisqartirib ko'rsatish	1-soni (shakl)
1. O'z balansida yoki ijaraga olgan avtomodillari va ular bilan bog'liq ma'lumotlar to'ldiriladi. Mantiqsizligi shundaki, avtomashinasi yo'q bo'lgan tashkilotlar ham mazkur hisobot shaklini to'ldirishga, ya'ni jadvalga shunchaki "0" qo'yib topshirishga majbur. Aslida, avtomashina igna kabi predmet emas, davlat ro'yxatidan o'tkazilgan texnika. Tegishli tashkilot bilan integratsiya qilinsa, bu ma'lumot avtomatik yangilab turilishi mumkin.	15-sonliq (shakl)	15-sonliq (shakl)
2. O'z balansida yoki ijaraga olgan avtomodillari va ular bilan bog'liq ma'lumotlar to'ldiriladi. Mantiqsizligi shundaki, avtomashinasi yo'q bo'lgan tashkilotlar ham mazkur hisobot shaklini to'ldirishga, ya'ni jadvalga shunchaki "0" qo'yib topshirishga majbur. Aslida, avtomashina igna kabi predmet emas, davlat ro'yxatidan o'tkazilgan texnika. Tegishli tashkilot bilan integratsiya qilinsa, bu ma'lumot avtomatik yangilab turilishi mumkin.	27-sonliq (shakl)	27-sonliq (shakl)

Shunga ko'ra, avtotransporti mavjud bo'lmagan korxonalar ushbu hisobotni taqdim etmaydi. Siz tomoningizdan maqolangizda “avtomashinasi shunchaki “0” qo'yib topshirishga majbur” deb yozgansiz, bu ma'lumotni qayerdan olganingizni bilish biz uchun tushunarsiz.

10. Bundan tashqari, xizmat yoki mahsulot turi ko'rsatilishi kerak bo'lgan hisobot shakllari bor. Ular esa maxsus kodlarda berilgan. Onlayn hisobot topshirishda hisobchilarning vaqtini oladigan, asabiylashtiradigan jarayonlardan biri shu. Maxsus kodlar mahsulot yoki xizmat turi yozilgan shaklda qulay

berilmagan: hisobchi avvalo tegishli mahsulot yoki xizmat turining kodini mustaqil ravishda o'zi izlab topishi, keyin bazadagi yuzlab kodlar orasidan uni axtarib o'tirishi kerak.

1 xizmat shakli (yillik) hisobot shaklining 1-bo'limi turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) xizmatlar hajmini subyektlar tomonidan to'ldirish jarayonida, **xizmat turini izlab topishida qulaylik yaratish maqsadida**, ushbu bo'limning "Xizmatlar kodi" ustunidagi "1" havolani sichqoncha tugmasi yordamida tanlash orqali "Klassifikatorlar" sahifasiga o'tib kerakli xizmat turini nomidan ham topish imkoni mavjud.



Siz tomoningizdan maqolangizda "Maxsus kodlar mahsulot yoki xizmat turi yozilgan shaklda qulay berilmagan"deb yozilgan, bu ma'lumotni qayerdan olganingizni bilish biz uchun tushunarsiz.

11. Korxona daromadlari, eksport to'g'risidagi ma'lumotlarni soliq qo'mitasining my.soliq.uz, hisob fakturalar yuborishga ixtisoslashgan didox.uz, soliq.servis.uz saytlariga, xodimlar soni va shtat birliklari bo'yicha ma'lumotlarni esa mehnat.uz saytiga integratsiya qilish orqali to'liq olish imkoniyati borligi Statistika agentligidagilarning xayoliga kelmaydi go'yo.

Shuningdek, elektron hisobvara-fakturalarini shakllantirish va almashinuviga ixtisoslashgan **my.soliq.uz, soliqservis.uz** va **didox.uz** saytlarida respublikaning eksporti to'g'risidagi zarur bo'lgan statistik ma'lumotlar shakllantirilmaydi.

Ya'ni, tashqi savdo to'g'risidagi statistikani shakllantirish uchun ma'lumotlar, xususan, tovarlarning hisobga olish vaqti, tovar oqimining yo'nalishi, tovar kelib chiqqan mamlakat, yuboriladigan mamlakat, tovar statistik qiymati, TIF TN bo'yicha tovarning kodi va nomi, netto og'irligi, qo'shimcha o'lchov birliklarining kodi (nomi), kelishuv xarakteri va hududlar kesimidagi ma'lumotlar yuqorida qayd etilgan saytlarda mavjud emas.

Ta'kidlab o'tish lozimki, tovarlar tashqi savdosi bo'yicha statistik ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash hamda ular bo'yicha ma'lumotlar bazasini shakllantirish Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan bojxona deklaratsiyalari ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi. O'z o'rnida, ushbu ma'lumotlar (eksport-import) bazasi Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan o'rnatilgan tartibda Statistika agentligiga to'liq integratsiyalashgan maxsus elektron kanal orqali onlayn rejimida taqdim etib kelinadi.

12. Xodimlar soni va shtat birliklari bo'yicha ma'lumotlarni mehnat.uz saytiga integratsiya qilish orqali to'liq olish imkoniyatining borligi.

Xodimlar soni va shtat birliklari to'g'risidagi ma'lumotlar mehnat statistikasiga oid davlat statistika hisobotlari asosida shakllantiriladi. Shu bilan birga, ushbu

hisobotlar asosida Xalqaro mehnat tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan tavsiya etilgan hamda bir qancha xalqaro reytinglarda mamlakatimizning o'rnini belgilashda foydalaniladigan **400 dan** ortiq milliy ko'rsatkichlar shakllantirilib, e'lon qilib borilmoqda.

Mehnat statistikasiga oid hisobotlarni soddalashtirish maqsadida Statistika agentligi hamda Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining Yagona milliy mehnat tizimi (mehnat.uz) ma'lumotlar bazalari integratsiya qilingan bo'lib, mehnat statistikasi hisoboti asosida shakllantiriladigan **400 dan** ortiq ko'rsatkichlardan "mehnat.uz" ma'lumotlar bazasida **15 tasi** (3,8 %) mavjudligi aniqlangan va sinov tariqasida ma'lumot almashinuvi yo'lga qo'yilgan.

Qolgan **385 ta** (96,2 %) mehnat statistikasiga oid ko'rsatkichlar xalqaro tashkilotlar tavsiyasiga ko'ra ishlab chiqilgan uslubiyat asosida statistika idoralari tomonidan 4-mehnat shakli (choraklik) va 1-mehnat shakli (yillik) statistika hisobotlariga muvofiq shakllantirilmoqda

Shu munosabat bilan, statistika idoralari xodimlariga nisbatan qadr-qimmatni kamsitilishiga yoki uning obro'sizlantirilishiga olib keladigan yolg'on axborotni tarqatish, shu jumladan, ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki Internet jahon axborot tarmog'ida tarqatish holatlari amaldagi qonunchilik hujjatlariga ya'ni **MJtKning 202²-moddasiga** binoan javobgarlikka sabab bo'lishi ma'lum qilinadi.

Hurmatli Ruslan Sabirov qimmatli vaqtingizni ayamay, o'zingiz uchun yangi bo'lgan sohadagi mavzuga qo'l urib, tahlil qilganingiz uchun o'z minnatdorligimizni bildiramiz. Shubhasiz, asossiz tanqidlaringiz bizni kelgusidagi faoliyatimizda barcha darajadagi foydalanuvchilar bilan muloqotlarimizda alohida masala sifatida targ'ibot va tushuntirish ishlarini olib borishimiz uchun bir turtki bo'ldi.

Yana shuni ma'lum qilamizki, bizning faoliyatimizga bog'liq har qanday masalada e'tiroz, takliflaringiz bo'lsa bizga murojaat qiling. Garchi, ishchi-muloqot (yuzma-yuz ko'rishgan holda, ochiq tanqid va muhokama) har qanday muammoga tez yechim topishda eng samarali yo'l ekanligi tarixdan ma'lum.